



*Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi*

## **ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR**

*2020- yil yanvar-dekabr oylarida*

### **Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**

Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 7174,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi, 5008,6 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 69,8 % ni, korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 2165,9 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 30,2 % ni o'zlashtirildi.



**Asosiy kapitalga investitsiyalar****Asosiy kapitalga investitsiyalar moliyalashtirish manbalari bo'yicha taqsimlanishi**

(2020- yil yanvar-dekabr oylarida)


	<b>Mrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan % da</b>
<b>Jami</b>	<b>7174,5</b>	<b>111,0</b>	<b>100</b>
<b>Markazlashgan investitsiyalar</b>	<b>1613,8</b>	<b>106,8</b>	<b>22,5</b>
Respublika byudjeti	541,1	79,9	7,5
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	886,5	124,5	12,4
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	171,2	186,4	2,4
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	15,0	50,2	0,2
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>5560,7</b>	<b>112,2</b>	<b>77,5</b>
Xorijiy investitsiya va O'zbekiston kafolati ostida bo'lmagan xorijiy kreditlar	2224,1	102,1	31,0
Aholi mablag'i	211,3	79,4	3,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1170,7	81,2	16,3
Korxonalar mablag'lari	1954,6	181,9	27,2

Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1613,8 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 22,5 % ni hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5560,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 77,5 % ni o'zlashtirildi.


2020- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Markazlashgan investitsiyalar




### Markazlashmagan investitsiyalar



## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Markazlashgan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



Markazlashgan moliyalashtirish manbaalarining eng katta qismi 55,0 % O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga va Respublika byudjeti tomonidan jami markazlashgan investitsiyalar ulushidagi hajmi 33,5 % ga to'g'ri keldi.


Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Markazlashmagan moliyalashtirish manbaalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

(jami hajmdagi ulushi, % da)




Xorijiy va boshqa investitsiyalar hisobidan o'zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 40,0 % ni tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, zamonaviy issiqxonalar qurish va boshqa investitsiya loyihalari.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 35,2 % ni korxonalar mablag'lari tashkil etadi. Bu investitsiya va kreditlar korxonalar va tashkilotlarning o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida amalga oshirishlari bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar


### Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha hududlar kesimida Sirdaryo tumani, Guliston shahar, Shirin shahar va Sardoba tumanlari yuqori o'sish sur'atlari qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati Sardoba, Oqoltin va Sayxunobod, Mirzaobod va Sirdaryo tumanlarida kuzatildi.

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 2897,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 4135,6 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 141,1 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Hududlar kesimida texnologik tarkibi (% da)



### Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida qayta ishlab chiqarish sanoati 2348,4 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 32,7 % ni, shu jumladan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1352,0 mlrd. so'mni yoki 18,8 % ni tashkil etdi.

Turar joy qurilishiga 1226,5 mlrd. so'm yoki 17,1 % ni tashkil etdi.

Qishloq xo'jaligida 1093,7 mlrd. so'mni va jami investitsiyalardagi ulushi 15,2 % ni tashkil etdi.

Elektr energiya sohasida 1007,5 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 14,0 % o'zlashtirilgan.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.






2020- yil  
yanvar-  
dekabr

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

*Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan, % da)*




## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 3110,6 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 43,4 % xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Shirin shaharlarida, Sirdaryo, Xovos, Oqoltin va Guliston tumanlarida yuqori investitsiyalar hajmiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Shirin shahrida "Sirdaryo IES" AJ ning moddiy texnika bazasini yaxshilash hisobiga amalga oshirilgan.



## Asosiy kapitalga investitsiyalar


### Obyektlarni ishga tushirish

Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiy maydoni 358,5 ming kv.m bo'lgan 880 ta turar joy ob'yekti qurib foydalanishga topshirilgan bo'lib, ulardan umumiy maydoni 291,2 ming kv.m. bo'lgan 571 ta uy qishloq joylarda joylashgan.



Turar joy qurilishida jami viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo'yicha Sardoba va Mirzaobod tumani yetakchilik qilayotgan bo'lsa, Shirin shahrida esa eng kam turar joylar ishga tushirildi.


### Ishga tushirilgan turar joylar



Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi aholining o'zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog'liq.

## Asosiy kapitalga investitsiyalar

### Ishga tushirilgan turar joylar (%)



*Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Investitsiyalar va  
qurilish statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul: G.Muhraximova  
Aloqa telefoni: (67)236-86-27*